

YOSHLAR MIGRATSIYASI: IQTISODIY OMILLAR VA ULARNING OQIBATLARI

Abdiqodirova Jasmina Kamoliddinovna

Buxoro davlat universiteti, menejment yo`nalishi talabasi

abduqodirovajasmina2006@gmail.com

Jo`rayeva Zilola Turobovna

Buxoro davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning chet elga chiqishining asosiy iqtisodiy sabablariga, xususan, mahalliy mehnat bozoridagi muammolar, maoshlar darajasi va kadrlarning qo‘llab-quvvatlanmasligi holatlariga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, migratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilinib, mamlakat iqtisodiy rivojiga bo‘lgan ta’siri yoritilgan. Muammoni bartaraf etish yo‘llari sifatida esa, ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantirish va yoshlarga qulay ish muhiti yaratish zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiy migratsiya, yoshlar, mehnat bozori, , brain drain, ishsizlik, kadrlar siyosati,*

Yoshlar jamiyatning eng dinamik qismi bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘ziga xos roli va o‘rni bilan ajralib turadi. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, energiyasi, dunyoqarashi yosh avlodning mavqei, qiyofasi qanday ekaniga bog‘liq; yoshlarning axloqiy salomatligi xalqimiz taqdiri, kelajagini belgilaydi.

Yoshlar - yoshi va jamiyatdagi o‘z mavqei bilan ajralib turadigan ijtimoiy-yosh toifasi: bolalik va yoshlikdan ijtimoiy javobgarlikka o‘tish. Odamlarni yoshlarga kiritish imkonini beruvchi yosh chegaralari muayyan mamlakatga qarab farq qiladi. Yoshlarning pastki yoshi 14 dan 16 gacha, yuqori yoshi 25 dan 35 gacha belgilanadi.

Agar yoshlarni yetakchi faoliyat turlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu davr ta’limning (o‘quv faoliyatining) tugashi va mehnat hayotiga (mehnat faoliyatiga) kirishish davriga to‘g‘ri keladi.

Yoshlarning asosiy muammolari: ta’lim olish, ishga joylashish va o‘zini o‘zi anglash, moddiy va ijtimoiy-maishiy muammolar hisoblanadi.

Har yili 600 mingdan ziyod bitiruvchi uchun mehnat bozorida barqaror ish o‘rinlari talab etiladi.

Ayni paytda mamlakatimizdan 2 million 356 ming kishi xorijga ishlash uchun ketgan.

70 milliondan ortiq aholiga ega Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy muammolardan biri yoshlar migratsiyasi ekani ta’kidlandi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaning barcha mamlakatlarida umumiy xususiyatlarni kuzatish mumkin. Xorijga ishlash uchun ketganlarning 1450,4 ming nafari Rossiyada, 366,3 ming nafari Qozog‘istonda, 144,7 ming nafari Turkiyada, 47,4 ming nafari Janubiy Koreyada va 348,2 ming nafari boshqa mamlakatlarda band. Tashqi mehnat migratsiyasi xizmatlari orqali 111 mingdan ziyod kishi, ulardan 32 mingdan ortig‘i 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Ular orasida turli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Migratsiyaning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo eng keng tarqalganlari quyidagilardir: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, irqiy, diniy va hokazo.

Mutaxassislar kichik shaharlardan yoshlar migratsiyasining asosiy sabablari qatoriga ta’lim olish zarurati, yanada istiqbolli ishga joylashish va munosib ish haqi olish imkoniyati, infratuzilmaning yo‘qligi, bo‘sh vaqtning past darajasi va shakllangan mehnat bozorida kasbiy faoliyatni amalga oshirishning imkoni yo‘qligi, shuningdek, noqulay ekologik vaziyatni kiritadilar. Bundan tashqari, yoshlarning internetdan oladigan ma’lumotlari ham katta ta’sir ko‘rsatadi. U yerda muvaffaqiyatli va qulay hayotga, iste’molchilik xulq-atvoriga va katta shaharda yashashga bo‘lgan aniq ko‘rsatmalar mavjud. Muammolarni hal qilish uchun ko‘plab yoshlar yashash joylarini o‘zgartirishadi.

Shunday qilib, yoshlar migratsiya jarayonlarining asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim, mehnat va iqtisodiy migratsiya.

Turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar uchun ta’lim uning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan muhim qadriyatdir. Yoshlar o‘rta maxsus va oliy ta’limni kelgusi kasbiy rivojlanishga investitsiyalar sifatida ko‘rishmoqda. Bunda hududiy markazlar ta’lim va kasb strategiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq ko‘proq imkoniyatlar yaratmoqda. Migratsiya yo‘nalishini tanlashda oliy o‘quv yurtining nufuzi va unda tanlangan mutaxassislikning mavjudligi, lekin ko‘proq darajada yosh yigit-qizlar o‘qishga ketayotgan shaharda doimiy yashash istiqbollari hisobga olinadi.

Yoshlarning o‘qishni tugatgandan keyin bandligi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Yashash hududida ishga joylashishning real imkoniyati yo‘qligi yoshlarning kichik shaharlardan barqaror chiqib ketishi uchun jiddiy poydevor bo‘lmoqda. Masalan, agar yigit olgan mutaxassisligi bo‘yicha ish o‘rni bo‘lmasa, u yoki boshqa mutaxassislik bo‘yicha ishga joylashishga yoki shaharni tark etishga majbur bo‘ladi.

Shunday qilib, yoshlar mehnat migratsiyasining bir nechta sabablari mavjud:

- 1 Rivojlanish istiqboli yo‘q.
- 2 Yoshlar ishlab chiqarishga borishni istamaydi.
3. Yoshlar uchun kasbiy faoliyat yo‘nalishlari cheklanganligi.
4. Ish haqining past darajasi.
5. Ishga joylashishda tajriba talab qilinishi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar orasida chet elga ishlash yoki yashash uchun chiqib ketish holatlari keskin oshmoqda. Bu holat nafaqat shaxsiy qaror, balki iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, migratsiya — zamonaviy global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ammo ilm-salohiyatli va tashabbuskor yoshlarning yurtni tark etishi jamiyat hayotiga, iqtisodiy rivojlanishga va madaniy muvozanatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada aynan iqtisodiy migratsiyaga sabab bo‘layotgan omillar va uning oqibatlari haqida so‘z yuritiladi.

Biz yoshlarning migratsiya masalalariga munosabatini o‘rganish maqsadida 10 savoldan iborat so‘rovnoma asosida 83 nafar respondent bilan intervyu o‘tkazdik. So‘rovnoma savollari quyidagilardan iborat:

1. Siz hozirda tahsil olayotgan universitet va yo‘nalishingiz bo‘yicha fikringiz qanday?
 - a) Ha, yoqadi, o‘zim tanlaganman

- b) Tanlagan soham, biroq boshqa sohada o‘qiyotgandekman (shunchaki diplom uchun)
- c) Yo‘q, tanlamaganman, shunchaki diplom uchun o‘qiyapman

2. Bo‘sh vaqtingizni asosan nimaga sarflaysiz?

- a) Faqat o‘qishga borib kelaman, uyda bo‘laman
- b) Ham o‘qib, ham ishlayman (tajriba orttirish uchun)
- c) Uyda do‘stlar bilan yoki uy ishlari bilan band bo‘laman

3. Agar davlatdan chiqish niyati bo‘lgan bo‘lsa, nima maqsadda?

- a) Sayohat uchun, xobbi sifatida
- b) O‘qish (tahsil olish) maqsadida
- c) Bu yerda o‘tib borish qiyin, shu sabab chetda ishlamoqchiman

4. Nima deb o‘ylaysiz, hozirda ta‘lim sohasidagi sifat va imkoniyatlar yetarli?

- a) Yo‘q, ta‘lim sifatida kamchiliklar ko‘p, imkoniyatlar kam
- b) Imkoniyatlar yetarli, lekin kadrlar uchun yetarlicha ish o‘rni yo‘q
- c) Ha, qoniqarli va kelajakda soham bo‘yicha ish topishimga ishonaman

5. Yurtimizda ish topish bo‘yicha asosiy muammolar nimada deb o‘ylaysiz?

- a) Ish haqi (maosh) kamligida
- b) Korrupsiya va tanish-bilishchilik yuqoriligida
- c) Ko‘pchilik kasb egallash uchun emas, diplom uchun o‘qishida

6. Ishlash imkoningiz bo‘lganda qayerda ishlashni xohlardingiz?

- a) Amerika, Koreya, Xitoy; chunki rivojlangan davlatlar, shaxsiy o‘shish bo‘ladi
- b) Turkiya, Germaniya, Rossiya; ish haqi yuqori, oilamni ta‘minlay olaman
- c) O‘zbekistonda ishlashni xohlayman; tinch, osoyishta va oilam davrasida bo‘lishni

afzal ko‘raman

7. O‘zbekistonda migratsiyani kamaytirishda qaysi usul eng yaxshi deb o‘ylaysiz?

- a) Mahalliy ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish va ish haqini oshirish
- b) Chet elda tahsil olganlar uchun yuqori maoshli ish o‘rni yaratish va mahalliy

kadrlarni qayta tayyorlash

- c) Bu har kimning shaxsiy xohishi, shuning uchun bu masalaga chek qo‘yib bo‘lmaydi

8. Innovatsion g‘oyalar va startaplar uchun yetarli mablag‘ ajratilishi ish haqi oshishiga va migratsiya kamayishiga sabab bo‘ladi deb o‘ylaysizmi?

- a) Ha, bu to‘g‘ri yondashuv, qo‘llab-quvvatlayman
- b) Faqatgina ish haqining oshishi yetarli bo‘ladi
- c) Boshqa yondashuvlar ham qo‘shilsa, yanada yaxshi bo‘lardi

9. Sizda bu mavzuga oid qo‘shimcha fikringiz bormi?

So‘rovnomada asosan talabalar ishtirok etishgan bo‘lib, ular o‘zlari hozirda tahsil olayotgan yo‘nalishlari bo‘yicha fikrlari ijobiy ekanligini va 92% talaba o‘zi o‘qiyotgan sohadan mamnunligi qayd etishgan. Bu esa, albatta, kelajakda ushbu talabalarning yetuk va kerakli kadr sifatida yetishib chiqishi uchun muhimdir.

2- Bo‘sh vaqtingizni asosan nimaga sarflaysiz? savoliga javoblar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy davlatlarga chiqish niyati bo‘lganlarning qariyb yarmi sayohat va o‘qish uchun bo‘lib, keyinchalik ular O‘zbekistonga qaytib uning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatli muammolarni hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishini taxmin qila olamiz.

3- Agar davlatdan chiqish niyati bo‘lgan bo‘lsa, nima maqsadda? savoliga talabalarning bergan javoblariga ko‘ra, hozirda o‘quv jarayonlari bo‘yicha kamchiliklar yo‘q, biroq ish o‘rinlarini ko‘paytirish kerakligini ta’kidlashgan.

4- aynan ish o‘rni topish to‘g‘risida asosiy muammolar so‘ralganda respondentlarning 50 foizi ish haqining kamligidagiligi va 41 foizi esa tanish-bilishchilik va korrupsiyaning mavjudligini aytib o‘tgan.

5- Yurtimizda ish topish bo‘yicha asosiy muammolar nimada deb o‘ylaysiz? Savoliga respondentlar asosan ish haqi (maosh) kamligida va 10% ishtirokchilar korrupsion holatlarning ko‘pligi deb javob berishgan.

Shuningdek, 60 foizdan yuqori talaba AQSh, Germaniya, Korea kabi rivojlangan davlatlarda yuqori oylik maosh uchun ishlash xohishini bildirgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir shaxs o‘z ehtiyojlari va oilaviy ehtiyojlari o‘ylagan holda, xorijda ishlamoqchi.

Bu vaziyatni yengillashtirish va O‘zbekistonda yetuk va malakali kadrlarni saqlab qolish uchun amaliy tavsiyalar sifatida mahalliy ish o‘rinlarini ko‘paytirish va ish haqini oshirish bo‘yicha belgilangan javoblar 66 foizni tashkil etadi, bundan xulosa qilish mumkinki, yuqoridagi tavsiyalar amalga oshirilsa kerakli ish kuchini yurtimizda saqlab qolib, O‘zbekiston rivojlanishi uchun asos qilib olsak bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda innovatsiyalar va startaplar uchun yetarli mablag‘ ajratish ham migratsiyaning kamayishiga olib kelishi mumkinligi 82 foiz talabaning ushbu fikrga qo‘shilganligida ham namoyon bo‘ladi.

Qo‘shimcha fikr va tavsiyalar bo‘yicha talabalar amaliyot jarayonlari ko‘proq tashkillashtirilishini, qo‘shma ta’lim dasturlari joriy etilishini, "Work and travel" dasturlarini kengaytirishni va 63 foiz respondentlar ish haqini oshirish haqida fikr bildirganlar.

Bugungi kunda yoshlarning ko‘pchilik qismi, jumladan malakali va yetarli tajribaga ega bo‘lgan zarur kadrlar ham chet elda o‘z faoliyatini boshlamoqda. Bu holat yurtimiz iqtisodiy salohiyati uchun jiddiy yo‘qotish sanaladi. Sifatli va bilimli ishchi kuchining kamayishi nafaqat ayrim sohalarning sekin rivojlanishiga, balki ichki mehnat muhitining zaiflashishiga ham olib kelmoqda. Asosiy sabablar esa ko‘pchilikka ayon. Uzoq yillar davomida bilim olib, tajriba orttirgan yosh mutaxassislar ko‘pincha o‘z mehnatlariga munosib haq olmaydi. Ularning ilg‘or g‘oyalari, zamonaviy qarashlari yetarlicha e’tirof etilmasligi, ijodiy tashabbuslarni amalga oshirish imkonlarining cheklangani ularni xorijga intilishga undamoqda.

Ko‘pchilik yoshlarning fikricha, xorijiy mamlakatlarda esa bunday mutaxassislariga munosabat butkul boshqacha: u yerda yuqori ish haqi, barqaror ijtimoiy muhit, professional o‘shish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, daromadlarning xarajatlarga nisbatan yetarli darajada qoplanishi ham yoshlarni o‘z shaxsiy rivojlanishini xorijda izlashga undovchi asosiy omillardan biridir.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonga yuborilgan xorijdagi ishchilarning pul o‘tkazmalari miqdori 16,1 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 18 foiziga teng. Bu holat iqtisodiy migratsiyaning nafaqat shaxsiy daromad, balki mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatishini ham isbotlaydi.

Yoshlarning xorijga chiqishi, albatta, faqat salbiy oqibatlariga olib keladi deyish noto‘g‘ri bo‘lardi. Bunday qaror ko‘pincha shaxsiy rivojlanish, tajriba orttirish va moliyaviy barqarorlikka erishish imkonini beradi. Chet elda ishlayotgan yoshlar xorijiy tillarni puxta o‘zlashtiradi, yangi kasbiy ko‘nikmalarni egallaydi, turli madaniyatlar bilan tanishadi. Eng muhimi, ular o‘z yurtiga valyuta shaklida mablag‘ yuborib, oilasini moddiy ta‘minlaydi va mamlakat iqtisodiyotiga bilvosita hissa qo‘shadi.

Ammo bu jarayonning salbiy jihatlari ham yetarlicha. Birinchidan, tajribali kadrlarning ketishi – bu mamlakat uchun “intelektual oqim”, ya’ni brain drain degan xavfli hodisani yuzaga keltiradi. Yillar davomida davlat hisobidan o‘qigan, o‘z sohasida yetuk mutaxassisga aylangan yoshlarning chet elga chiqib ketishi — ichki taraqqiyotga turtki bera oladigan kuchlarning yo‘qolishiga olib keladi. Ikkinchidan, uzoq muddatli migratsiya oilaviy ajralishlar, ijtimoiy aloqalarning uzilishi, ma’naviy bo‘shliqqa ham sabab bo‘ladi.

Iqtisodchi-ekspert doktor Rustamjon Sobirov bu borada shunday deydi: “Malakali yoshlar ketishi — bu nafaqat miqdoriy yo‘qotish, balki sifat jihatidan eng salohiyatli inson kapitalining yo‘qolishidir.”

Yoshlar migratsiyasini butunlay to‘xtatish hozirgi yoshlarning talabidan kelib chiqsak imkonsiz, ammo uning zaruriy holatga aylanib qolishining oldini olish mumkin. Eng muhim yechimlardan biri — mahalliy ish o‘rinlarini ko‘paytirish va ish haqlarini oshirish. Yurtimizdagi mehnat sharoitlari xalqaro mehnat bozori bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetmas ekan, yoshlar doimiy ravishda tashqi imkoniyatlarga yuzlanaveradi. Ikkinchi muhim yo‘nalish — kadrlarning fikr va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash. Innovatsion g‘oyalar uchun ochiq tizim, yoshlarni startaplar orqali o‘zini ko‘rsatishga imkon beruvchi muhitni kengaytirish, erkin fikrlovchilar uchun sharoit yaratilsa, ko‘pchilik mutaxassislar chet el emas, o‘z yurtida istiqbol ko‘ra boshlaydi. Shuningdek, ta’lim tizimi va biznes o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali, talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish lozim.

Yoshlar siyosati - davlatning yoshlarni ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratilgan dasturi. Siyosatning maqsadi davlatning mavqeini mustahkamlashga hissa qo‘shadigan yoshlar guruhini rivojlantirishdir.

Hududlarda kichik shaharlar rivojlanishini boshqarishning davlat siyosati quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

birinchidan, yoshlarning o‘rta va oliy kasb-hunar ta’limiga ega bo‘lishini ta‘minlash;
ikkinchidan, sifatli kadrlar salohiyatini takror ishlab chiqarish, shahar korxonalarini tiklash, saqlash va rivojlantirish uchun infratuzilmani rivojlantirishga ko‘maklashish;
uchinchidan, kichik shaharlarning "o‘ziga xosligini" saqlab qolish va rivojlantirishga ko‘maklashish.

Bundan tashqari, yoshlarning istiqbolga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasi sini yanada rivojlantirish bo‘yicha strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/3107036>

2. Sobirov, R. Inson kapitali va iqtisodiy o‘shish. Iqtisodiy tahlil jurnali. 2023y.
3. <https://www.worldbank.org/> Jahon banki hisobotlari. (2025)
4. Katz, J. A. (2003). The chronology and intellectual trajectory of American entrepreneurship education: 1876–1999. *Journal of Business Venturing*, 18(2), 283–300. [https://doi.org/10.1016/S0883-9026\(02\)00098-8](https://doi.org/10.1016/S0883-9026(02)00098-8)
5. Krueger, N., & Brazeal, D. (1994). Entrepreneurial potential and potential entrepreneurs. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 18(3), 91–104.
6. Lackeus, M. (2015). Entrepreneurship in education: What, why, when, how. OECD Entrepreneurship360 Background Paper.
7. Markowitsch, J., & Messerer, K. (2006). Entrepreneurship education in Europe: Fostering entrepreneurial mindsets through education and learning. European Commission, Enterprise and Industry Directorate-General.
8. Miller, P., & Bound, K. (2011). The Startup Factories: The rise of accelerator programmes to support new technology ventures. NESTA Discussion Paper.
9. Mirzayev, A. K. (2024). The role of business incubators in regional innovation systems: Evidence from Uzbekistan. *Economics and Innovative Technologies*, 3(1), 45–58.